

## FRAZELOGIYA VA OLIMLARNING QILGAN TADQIQOTLARI

**Qosimova Nafosat Doniyorjon qizi**

Andijon davlat pedagogika instituti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi frazeologiya va olimlarning qilgan tadqiqotlari haqida bo‘lib, unda frazeologiya haqida ma‘lumot, tilshunos olimlarning frazeologiya haqida qanday ishlar olib borgani va fikrlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** frazeologiya, frazema, leksema, nutqiy birlik, turg‘un birlik, lisoniy birlik.*

***Abstract:** this article is about phraseology in the modern Uzbek literary language and the research done by scientists, it contains information about phraseology, the work and opinions of linguists on phraseology.*

***Key words:** phraseology, phraseme, lexeme, speech unit, stable unit, linguistic unit.*

### **Kirish**

Nutq jarayonida fikrimizni faqatgina so‘zlar yordamida emas balki, ikki yoki undan ortiq so‘zlarning bog‘lanishidan hosil bo‘lgan yoki nutqqa tayyor holda kirib kelgan birliklardan ham foydalanamiz. Bu birliklar nutqimizni tasvirlabgina qolmay uni yanada kengaytirib fikrimizni tinglovchiga yanada aniqroq qilib berishga, uni yana ham mazmunli, lo‘nda va bo‘yoqdor tarzda bo‘lishiga yordam beradi. Tilshunoslikning bunday birliklarini frazeologiya bo‘limi o‘rganadi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Raxmatov, F., & Tilolova, G. (2013). Chet tilini ukitishda xorijtajribasi va grantlardan foydalanish. Chet tilini ukitishda metodika, malaka va tajriba, 259-261.

## Frazeologiya va frazeologiya haqida

**Frazeologiya** tilshunoslikning bir bo‘limi bo‘lib, u tilning lug‘at tarkibidagi frazemalar haqida ma’lumot beradi.

**Frazema** ko‘chma ma’noli tuig‘un konstruksiya.<sup>1</sup> Masalan, qo‘rqmoq(leksema) kapalagi uchmoq (frazema), sho‘x (leksema) — yerga ursa ko‘kka sapchimoq (frazema) singari. Bungan kelib chiqadiki, frazema ham leksema kabi lug‘aviy birlik sanaladi.<sup>2</sup>

Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli va ma’noviy tabiatga ega bo‘lgan lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tarvuzi qo‘ltig‘idan tushdi, sirkasi suv kuv tarmaydi, boshi ko‘kka yetdi, do‘ppisini osmonga otdi, qo‘y og‘zidan cho‘polmagan, og‘zi qulog‘iga yetdi, aravani quruq olib qochdi va boshqalar.<sup>3</sup> Frazeologik ibora, frazeologik birlik, turg‘un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamaları bilan ham yuritiladi. Frazeologizm lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo‘lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo‘ladi.

Frazeologizmlarning paydo bo‘lishi inson tafakkuri bilan tilning leksik imkoniyatlari o‘rtasidagi nomutanosibliklarni kamaytirishga xizmat qiladi. Frazeologizmlarga faqatgina tilning “bezagi” sifatida qarab bo‘lmaydi. Dunyoda iboralarsiz tilning o‘zi yo‘q. Shoir vayo‘zuvchilar ham o‘z asarlarini iboralardan mohirona foydalanadi. Bu esa asarlarini yanada bo‘yoqdorroq qilishga yordam beradi.

Biri eski o‘g‘ri, biri yangi boy,  
Ko‘zini yog‘ bosgan, lab-lunji moy.  
Dili bilan tili kelar poyma-poy,  
Og‘ayni-oshnalar yodimga tushsa.

<sup>1</sup> Murodqosimov, A., Raxmanova, D., Sanakulov, Z., & Zaripova, G. (2020). Nemis va uzbek tillarida suz yasash usullari (kompozitsion usullar misolida). Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 1(2), 241-248.  
Sanaqulov, Z. I. (2020). Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z yasashining ma‘nosi (qiyosiy jihatdan). Fan va ta‘lim, 1(Maxsus so

<sup>3</sup> Sanaqulov, Z. (2019). Ta'lim muassasalarida pedagogik ta'lim innovatsion klaster istikboli. In Xorijiy tillarni ukitish samaradorligini innovatsion pedagogik ta'lim klasteri asosidagi amalga ko‘tarish istikbollari (120-124-betlar). CSPI.

( Iqbol Mirzo “Yodimga tushsa” she’ridan)

Bu she’rda ko‘zini yog‘ bosgan iborasi takabburlanish tanib-tanimaganga olish ma’nosini ifodalab beradi.

Frazeologiya tilshunoslikning mustaqil tarmog‘i sifatida 20-asrning 40-yillarida rus tilshunosligida paydo bo‘lgan. Uning dastlabki shakllanishiga rus olimlari A.A.Potebnya, I.I.Sreznevskiy, A.A.Shaxmatov asarlarida asos solingan bo‘lsa, barqaror (turg‘un) so‘z birikmalarini alohida tilshunoslik bo‘limi — Frazeologiyada o‘rganish masalasi 20—40-yillardagi o‘quv-metodik adabiyotlarda — Ye.D.Polivanov, S.Abakumov, L.A.Bulaxovskiy asarlarida ko‘tarib chiqilgan. G‘arbiy Yevropa va Amerika tilshunosligida Frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida ajratilmaydi. Tilshunoslikka oid adabiyotlarda frazeologizmlarning lingvistik mohiyati masalasi hali hanuzgacha tortishuvlar ostida qolmoqda. Sh. Balli frazeologiyaning asosiy belgisi uning o‘rnini o‘sha iboraning ma’nosiga to‘g‘ri keladigan so‘z bilan almashtirish mumkin yoki mumkin emasligi, deb hisoblasa, B.A.Larin esa uning asosiy belgisi frazeologik birliklarni tashkil qiluvchi alohida so‘zlarning ma’nosidan o‘sha birliklar umumiy ma’nosining kelib chiqmasligidadir, deb hisoblaydi. Teo Shippan ham frazeologizmlarning ikki turini ajratib ko‘rsatgan, ya’ni turg‘un birikmalar va frazeologik butunlik. Yana bir tilshunos olim U. Fiks esa, frazeologizmlarni erkin gap bilan taqqoslaganda, fe’llar ma’nosining mos kelishi yoki mos kelmasligiga ko‘ra ikki turini farqlaydi. Demak, tilshunos olimlar frazeologizmlarni turli xil jihatlarini o‘rganishga urinishgan va hozirgacha ham urinib kelishmoqda. Frazeologizmlar so‘z yasalishidagi kabi alohida strukturalari va yasalish affikslari mavjud emas.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, frazemaning ifoda jihatiga uning tarkibidagi leksemalargina emas, balki frazemaning doimiy bilan birga qatnashadigan morfemalar mansub bo‘ladi, chunki bunday morfemalar, o‘rni tuslovchi ham frazemaning ichki grammatik qurilishiga mansub bo‘ladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Raxmatov, F., & Tilolova, G. (2013). Chet tilini ukititishda xorijtajribasi va grantlardan foydalanish. Chet tilini ukitishda metodika, malaka va tajriba, 259-261.
2. Murodqosimov, A., Raxmanova, D., Sanakulov, Z., & Zaripova, G. (2020). Nemis va uzbek tillarida suz yasash usullari (kompozitsion usullar misolida). Ta'lim fanlari bo'yicha akademik tadqiqotlar, 1(2), 241-248.
3. Sanaqulov, Z. I. (2020). Ingliz va o'zbek tillarida so'z yasalishining ma'nosi (qiyosiy jihatdan). Fan va ta'lim, 1(Maxsus son).
4. M.Arabboyeva "Ona tili darslari orqali o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional fuqorolik kompetensiyalarni rivojlantirish" Toshkent 2022.